



## BUYRUQ

2022 yil "14" *fevral* № *14/ich* sonli

Toshkent sh.

**Pedagogik innovatsiyalar institutda  
"Ishonch telefoni"ni tashkil etish  
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qarorida va mazkur qaror ijrosi yuzasidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2022 yil 12 yanvarda tasdiqlangan Nazorat rejasi bandlarining ijrosini ta'minlash maqsadida

### BUYURAMAN:

1. Institutning umumiy faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va unga aloqador ma'lumotlarni tezkor qabul qilishni ta'minlash maqsadida 71-246-88-03 raqamli "Ishonch telefoni" faoliyati yo'lga qo'yilsin.

2. "Korrupsiyaga qarshi kurashish"ga doir murojaatlarni qabul qilish uchun mas'ul etib Institutning devonxona mudiri SH.Nosirova belgilansin.

3. Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinatori (A.Zakirov)ga: Institut faoliyatida korrupsiyaviy holatlarga doir murojaatlarni hisobini yuritish daftarini tashkil etish;

mazkur daftarga 71-246-88-03 - raqamli telefon orqali kelib tushgan murojaatlarni o'z vaqtida sifatli va aniq etib qayd etish, kelib tushgan murojaatlar mazmuni va mohiyati muallifi to'g'risidagi ma'lumotni o'z vaqtida Institut rahbariyati va tegishli bo'linma boshlig'iga yetkazish vazifasi yuklatilsin.

"Ishonch telefoni" orqali murojaatlar haftaning dushanba - juma kunlari soat 9-00 dan 17-00 gacha qabul qilinadi.

4. Mazkur buyruq ijro nazorati direktor o'rinbosari N.Yusupov zimmasiga yuklatilsin.

Direktor

Z.Xudayberdiyev



**Kiritildi:**

Malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonini o'quv-metodik ta'minlash boshqarmasi boshlig'i

O'.Xudayberdiyev

**Kelishildi:**

Malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha direktor o'rinbosari

A.Jalalov

Professional ta'limni rejalashtirish va rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari

SH.Sharofaddinov

Moliyaviy va iqtisodiy masalalar bo'yicha direktor o'rinbosari

N.Yusupov

Yuriskonsult

E.Yarmamatov

**QAYTLASHTIRILGAN**

1. Boshqarmaning umumiy ishida ko'rsatilgan qismlar...  
2. Boshqarmaning umumiy ishida ko'rsatilgan qismlar...  
3. Boshqarmaning umumiy ishida ko'rsatilgan qismlar...  
4. Boshqarmaning umumiy ishida ko'rsatilgan qismlar...

O'.Xudayberdiyev

...